

NASIBA YUSUPOVA

Antiq mantiq

2

Tanqidiy fikrlash
Muammoni yechishga
nostandart yondashuv



Toshkent
«Akademnashr»
2022

UO'K: 51:164

KBK: 22.1я7

Yu 91

Yu 91 Yusupova Nasiba

Antiqa mantiq 2 [Matn]: ilmiy-ommabop / N.Yusupova.

– Toshkent: «Akademnashr» NMM, 2022. – 112 b.

ISBN 978-9943-6963-1-0

UO'K: 51:164

KBK: 22.1я7

Hayotni anglash va unga ma'no berish uchun savollar muhim ahamiyat kasb etadi. Savollarga javob izlar ekansiz, yana ham yaxshiroq, yana ham to'g'riroq va yana ham tezroq harakat qilish hayotda duch keladigan muammolarni oson va to'g'ri yechishigizda qo'l keladi. Maqsadi sari intilayotgan, teran mulohaza qiluvchi va fikrlovchi yosh avlodning ko'payishini niyat qilgan holda ushbu kitobni sizlarga ilindik. Kitobga kiritilgan savollarning bir qismi dunyodagi shunga o'xshash kitob va jurnallardan olingan bo'lsa, qolgan bir qismi original matnlardir. Savol berishdan chekinmang va to'g'ri javobni topguncha izlanishdan to'xtamang! Kitob aqlini charxlash niyatida yurgan turli yoshdagi bolalarga, ularning ota-onalari va ustozlariga mo'ljallangan.


ISBN 978-9943-6963-1-0

© Nasiba Yusupova

«Antiqa mantiq 2»

© «Akademnashr», 2022

Savollar



1-savol.

BESH YUZ ELLIK BESH

$$5 + 5 + 5 + 5 = 555.$$

Faqatgina bitta chiziqcha yordamida berilgan yig'indini hosil qiling.

2-savol.

SAKKIZTA SAKKIZ

$$88888888 = 1000.$$

Sakkizta 8 raqami va qo'shish amalidan foydalanib 1000 sonini qanday hosil qilish mumkin?

3-savol.

TO'RTTA RAQAM OLMA

Quyidagi misoldagi harflar farqli raqamlarga teng kelmoqda.

OLMA

OLM

OL

O

+

5432

Ushbu natijani qo'lga kiritish uchun harflar o'rniga qaysi raqamlar mos kelishini toping.

4-savol.

RAQAMLAR VA HARFLAR

«F 45 D 2 T dan iboratdir». Raqamlar va keltirilgan bosh harflar qanday soʻzlarni ifodalaydi? Jumlani toʻliq oʻqing.

Namuna: «1 H 7 K bor» (1 haftada 7 kun bor)

5-savol.

TOʻRTTA SON

Ikki xonali toʻrtta son koʻpaytirilganida natija 111111 ga teng boʻladi.

$$_ _ \times _ _ \times _ _ \times _ _ = 111111$$

Bu sonlarni toping.

6-savol.

SOʻROQ BELGISI


7 D, 7 S, 8 Ch, 8 P, 4 J, 5 Sh, ?

Soʻroq belgisining oʻrniga qaysi raqam va harf qoʻyiladi?

7-savol.

SUV SHISHASI

Suv bilan toʻldirilgan shishaning ogʻirligi – 1800 gramm. Suvning yarmi boʻshatilganida shisha ogʻirligi 950 grammga teng keladi. Boʻsh shishaning ogʻirligini toping.



8-savol.

YANA SO'ROQ BELGISI

So'roq belgisining o'rniga qaysi raqam qo'yiladi?

				?					
			36		49				
		12		42		42			
7	5	19	6						

9-savol.

SERG'AYRAT SOAT

Dunyodagi barcha soat turlari ichida harakat qiladigan a'zolari ko'pchilikni tashkil qiladigani qaysi?

10-savol.

YANVAR-FEVRAL

Biror yilning yanvar oyida beshta dushanba, beshta seshanba va beshta chorshanba bor bo'lsa, o'sha yilning 1-fevrali qaysi kunga to'g'ri keladi?

11-savol.

RAQAMLAR VA HARFLAR BESH, BIR, ?, OLTI, ?, TO'QQIZ, TO'RT...

So'roq belgisi o'rniga bir xonali sanoq sonlardan qaysilarini qo'yish mumkin?

12-savol.

UCH YUZ SAKSON UCH

1, 2, 25, 50, 75 va 100 sonlaridan bir marta foydalanib 383 yig'indisini hosil qiling. Foydalanishingiz mumkin bo'lgan amallar qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishdan iborat.

13-savol.

VIRUSLI KOMPYUTER



Virus yuqqan kompyuterlarning viruslarini tozalashingiz kerak. Agar bugundan e'tiboran ishga kirishsangiz, kuniga uchta kompyuter tozalashingiz mumkin va yakshanba kuni ishingizni bitirasiz. Agar har kuni beshta kompyuter tozalasangiz, juma kuni ishingiz nihoyasiga yetadi.

Bugun qaysi kun?

14-savol.

YIG'INDI YUZGA TENG BO'LSIN

«1» dan «9» gacha bo'lgan sonlarni tartib bilan yozgan holda faqat «+» va «-» belgilaridan foydalanib 100 yig'indisini hosil qiling.

12 xil usuldan 2 tasini keltiramiz:

1. $1 + 2 + 34 - 5 + 67 - 8 + 9 = 100$
2. $123 + 45 - 67 + 8 - 9 = 100$
3. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$
4. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$
5. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$
6. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$
7. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$
8. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$
9. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$
10. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$
11. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$
12. $1\ 2\ 3\ 4\ 5\ 6\ 7\ 8\ 9 = 100$

15-savol.

QIZIL SHAPKACHA, ARSLON VA OLMAXON

Qizil shapkacha faromushxotirlar o'rmonida arslon va olmaxonni uchratib qolibdi. Arslon haftaning dushanba, seshanba va chorshanba kunlarida yolg'on, haftaning qolgan kunlari rost gapirarkan. Olmaxon esa haftaning payshanba, juma va shanba kunlarida yolg'on, qolgan kunlari faqat rost gapirardi.

Arslon shunday debdi:

«Kecha yolg'on gapiradigan kunlarimdan biri edi».

Olmaxon unga javob beribdi:

«Kecha mening ham yolg'on gapiradigan kunlarimdan biri edi».

Savol: Qizil shapkacha, arslon va olmaxon qaysi kuni o'rmonda uchrashib qolishgan?

16-savol.

HAFTA KUNLARI

A, B, C, D, E, F va G o'sha kuni haftaning qaysi kuni ekanligi haqida bahslashib qolishdi. Ular orasida quyidagicha suhbat bo'lib o'tdi:

- A: «Ertadan keyingi kun chorshanba».
- B: «Bo'lishi mumkin emas, chorshanba bugun».
- C: «Ikkalangiz ham adashyapsiz, ertaga chorshanba».
- D: «Aljirama. Bugun dushanba ham emas, seshanba ham emas, chorshanba ham emas».
- E: «Shuni aniq bilamanki, kecha payshanba edi».
- F: «Bo'lmagan gap, ertaga payshanba».
- G: «Shu narsaga mutlaqo aminmanki, kecha shanba emas edi».

Bu ifodalardan faqat bittasini to'g'ri deb hisoblasak, o'sha kuni haftaning qaysi kuni bo'lgan?

17-savol.

MATEMATIK MANTIQUIY MASHQ

- I. $5 \cdot 4 = 81$
- II. $4 \cdot 1 = 25$
- III. $7 \cdot 5 = 144$
- IV. $6 \cdot 2 = ?$

Ushbu matematik mantiqiy amalning javobini toping.

18-savol.

TUSHIRIB QOLDIRILGAN HARFLAR

Quyidagi jumlada ba'zi harflar tushirib qoldirilgan. Tushirib qoldirilgan harflarni topib jumlaning to'liq qilib yozing.

«ZBK TLNNG ML LG'T»

19-savol.

YANA SHAKLLAR, YANA HARFLAR...

▲ □ ▲ □ ● ◉ ● ◉ □ ▲ ● ◉ ▲ ● ◉ □ ◉ □ ◉ ● } LKMN NLNM KLKL MNMN KMNL	→ □ ▲ ● ◉ = ?
---	---------------

A) MNMN B) KMNL C) LKMN D) NLNM E) KLKL

Ushbu mantiqiy amalning to'g'ri javobini toping.

20-savol.

BIR JARROH VA UCH BEMOR

Bir jarroh ketma-ket uch nafar bemorni operatsiya qilishi kerak. Faqat ikki juft operatsiya qo'lqopi bor. Operatsiyaning ishonchli o'tishi uchun jarroh qo'lqoplardan qanday foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi? Shifoxona qonun-qoidalariga ko'ra:

a) Jarrohning qo'li tekkan biror qo'lqop bemorlarga tegmasligi kerak;

b) Bemorlardan birortasiga tekkan qo'lqop jarrohning qo'liga yoki boshqa birorta bemorga tegmasligi kerak.

21-savol.

GUL... GUL... GUL...

Dildoraning dadasining besh nafar qizi bor:

1. Gulchin
2. Gulchiroy
3. Gulchehra
4. Gulchinor

Beshinchi qizining ismi nima?

22-savol.

QURBAQAJON, QURBAQA

Bitta qurbaqa 30 metr chuqurlikdagi quduqqa tushib ketdi. Quduqdan chiqib olish uchun har kuni 3 metr yuqoriga tirmashmoqda, lekin kechalari 2 metr pastga tushib ketmoqda.

Qurbaqa quduqdan necha kunda chiqa oladi?



Ilmiy-ommabop nashr

Nasiba YUSUPOVA

Antiqa mantiq

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahriddin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Inomjon O'SAROV

Musahhih: Mahfuza IMOMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009
Terishga berildi: 05.01.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 18.05.2021-y.
Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$.
Presquire garnituras. Ofset bosma.
Hisob-nashriyot t.: 5,88. Shartli b.t.: 6,51.
Adadi: 3000 nusxa.
Buyurtma № 27

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani So'galli ota 5-uy.

Tel.: (+99898) 111-56-22
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz